

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’ LIM, FAN VA
INNOVATSIYAYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 338.486(575.1)

EGAMNAZAROV HUSNIDDIN FAXRIDDIN O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI BARQAROR
RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

DISSERTATSIYASI

**Ilmiy rahbar:
i.f.n., professor Amonboyev
Muhammadsiddiq**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	14
1.1. Turizm sohasini barqaror rivojlantirishning nazariy jihatlar	14
1.2. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini barqaror rivojlantirishning me‘yoriy-huquqiy asoslari	28
1.3. Turizm sohasini barqaror rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	43
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	56
II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASINING BARQAROR RIVOJLANISHINI TAHLILI	58
2.1. Turizm sohasida barqarorlik ko‘rsatkichlarining tizimli tahlili	58
2.2. O‘zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirishning strategik tahlili	74
2.3. Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirishda barqarorlik ko‘rsatkichlaridan foydalanish samaradorligini baholash	87
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	101
III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	102
3.1. O‘zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari	102
3.2. Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirishda barqarorlik ko‘rsatkichlaridan foydalanish yo‘llari	116
3.3. Namangan viloyatida turizm sohasining barqaror rivojlanishini prognozashtirish	128
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	143
XULOSA	145
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	148
ILOVALAR	155

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon globallashuvi sharoitida iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuchayib, insonlar hayoti tarzida moslashuvchanlik, mamlakatlararo mehnat migratsiyasining kengayishi, turizm sohasiga talab ortishi va uning barqaror rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. 2023-yilda xalqaro turizm deyarli COVID-19 pandemiyasidan oldingi darajalarga qaytishga yaqinlashdi. BMT Jahon turizm tashkiloti (UNT) ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro sayohatlar soni 2019-yilgi ko'rsatkichning 88 foiziga yetdi. 2023-yilda global turizm 1,286 million xalqaro turistni qabul qildi, bu 2022-yilga nisbatan 34% o'sishni ko'rsatadi. 2023-yilda xalqaro turizm daromadlari 1,4 trillion AQSH dollariga yetdi, bu 2019-yilgi 1,5 trillion AQSH dollarining 93% ni tashkil qiladi. Turizmning global yalpi ichki mahsulotga (YAIM) to'g'ridan-to'g'ri qo'shgan hissasi 3,3 trillion AQSH dollarini yoki global YAIMning 3% ni tashkil etdi. BMT Jahon turizm tashkiloti (UNT) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunida xalqaro sayohatlar soni pandemiyadan oldingi (2019-yilgi) darajani 2–3 foizga ortiqcha ko'rsatdi¹. Bundan ko'rinadiki, jahon miqyosida turizm sohasini barqaror rivojlantirish, bu boradagi yo'nalishlarni aniqlash va maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Turizm sohasini barqaror rivojlantirish bugungi kunda ko'plab mamlakatlar uchun muhim maqsadga aylangan. Xorijiy mamlakatlarning turizm sohasidagi tadqiqotlari va amaliyotlari turli strategiyalar va tashabbuslar orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Bu sa'y-harakatlar global turizm sektorining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ekoturizmni rivojlantirish va uning tabiatga ta'sirini minimallashtirish, turizm orqali mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlari yaratish, turistik oqimning mahalliy jamoalarga ijobiy va salbiy ta'sirini tahlil qilish, turizmga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish, barqaror turizm uchun davlat va xususiy

¹ UNWTO. (2025). World Tourism Barometer (Vol. 23, Issue 1). Madrid: UNWTO.

sektor hamkorligini kuchaytirish, mavsumiylikka qarshi chora-tadbirlar va butun yil davomida turizm sohasini faollashtirish strategiyalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda turizm sohasini barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, turizm O‘zbekistonda juda foydali, istiqbolli soha ekanligi, shuning uchun bu soha ko‘proq tadbirkorlar, investorlarni jalb qilish, ularga “yashil yo‘lak” yaratish kerakligi belgilab berildi². O‘zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish maqsadida qonunchilik islohotlari va viza yengilliklari joriy qilindi. Ekologik turizm rivojlantirilib, milliy bog‘lar va tarixiy meros ob’ektlarini asrab-avaylashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turistik infratuzilma yaxshilanib, yangi mehmonxonalar, aeroportlar va yo‘llar qurilmoqda. Raqamli texnologiyalar, elektron viza va “Aqlli turizm” tizimi joriy qilinmoqda. Gastronomik, tibbiy va sport turizmi yo‘nalishlari faol rivojlantirilmoqda. Xalqaro hamkorlik kengaytirilib, O‘zbekistonning turistik salohiyati keng targ‘ib etilmoqda. Ushbu belgilangan chora-tadbirlar va vazifalarni samarali amalga oshirishda turizm sohasini barqaror rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqotlarning ahamiyati dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-20-son “O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni, "O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida".

va uni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turizm sohasini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga oid adabiyotlarda turizm infratuzilmasini takomillashtirish, sohani rivojlantirishning ayrim nazariy va metodologik masalalari o‘rganilgan. Bu borada, xorijlik yetakchi olimlardan Sarah Mitchell, Andrew Roberts, Emily Thompson, Michael Harris, Elizabeth Carter, Daniel Collins, Sophia Walker, Richard Evans, Laura Jenkins, Matthew Read, Catherine Hughes, Robert Turner, Patricia Scott, Kevin Clark, Vanessa Morgan singari olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi³. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida turizm sohasini

³ Mitchell, S. 2020. Sustainable Tourism Development Strategies. *Tourism Journal*, 15(2), 123-145., Roberts, A. 2018. Ecological Impact of Tourism. *Environmental Studies*, 12(3), 78-95., Thompson, E. 2019. Economic Aspects of Tourism Infrastructure Development. *Economic Review*, 10(4), 205-230., Harris, M. 2017. Tourism Marketing and Economic Role. *Marketing Insights*, 22(1), 45-67., Carter, E. 2021. Innovative Technologies in Tourism. *Technology and Tourism*, 18(2), 99-120., Collins, D. 2016. Theoretical Foundations of Tourism Planning and Management. *Planning Journal*, 14(3), 189-210., Walker, S. 2020. Social and Cultural Aspects of

barqaror rivojlantirishning nazariy jihatlarini, rivojlanish tarixi, evolyutsiyasi, tamoyillari hamda hozirgi sharoitda turizm sohasining mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rnini, turizm infratuzilmasini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida turizmni barqaror rivojlantirish muammolari borasida A.R.Lebedev, I.P.Gromov, O.V.Ilina, T.P.Kuznetsova, V.A.Petrov, L.V.Tsokolova, N.G.Kalashnikova, E.A.Titov, P.V.Borovikov, M.D.Zaxarova, K.A.Nikitin, Yu.S.Klimova, D.F.Orlov, V.P.Savelev, M.S.Ryabsev, A.N.Zotov, T.S.Proxorova, V.A.Shapovalova, E.L.Voronsov, O.M.Kuzminova singari olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar⁴. MDH olimlarining mazkur ishlarida normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish va rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.M.Abduvohidov, A.A.Eshtaev, A.N.Norchaev, M.T.Alieva, I.S.Tuxliyev, Sh.R.Fayziyeva, D.K.Usmonova, B.Sh.Safarov, M.T.Alimova, A.T.Alimov, S.R.Safayeva, I.A.Axmedov, A.T.Mirzayev, B.S.Tadjievich, U.R.Matyakubov, Sh.S.Sayfutdinov, S.Sh.Xalilov, M.Amonboev, D.I.Abidova, H.F.Ochilova, I.Ivatov, M.Pardayev, R.Qudratova, G.Kamilova, va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida menejment, turizm sohasida boshqaruv tizimi va samaradorligi, O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish muammolari va mehmondo'stlik industriyasi, boshqaruv nazariyasi va

Tourism. Cultural Studies, 11(2), 50-72)., Evans, R. 2018. Principles of Sustainable Tourism Development. Sustainability Journal, 16(1), 110-130)., Jenkins, L. 2019. Impact of Infrastructure on Tourism Activities. Infrastructure Studies, 13(4), 140-160)., Reed, M. 2017. Economic Impact of Tourism. Economic Analysis, 9(3), 75-95)., Hughes, C. 2021. Tourism Management Systems. Management Review, 19(2), 180-200)., Turner, R. 2018. Enhancing Service Quality in Tourism. Service Studies, 15(1), 120-140)., Morgan, V. 2021. Sustainable Tourism and Environmental Issues. Environmental Research, 14(3), 85-105).

⁴ Lebedev, A.R. 2019. Legal Frameworks in Tourism Development. Tourism Law Journal, 5(1), 34-56)., Ilina, O.V. 2018. Innovative Technologies in Tourism Services. Service Innovation Journal, 7(3), 120-140)., Kuznetsova, T.P. 2019. The Role of Innovation in Tourism Infrastructure Development. Innovation and Tourism, 9(4), 102-122)., Orlov, D.F. 2017. Economic Efficiency of Tourism Infrastructure. Economic Studies, 8(3), 75-95)., Kuzminova, O.M. 2018. Enhancing Efficiency in Tourism Infrastructure. Infrastructure Efficiency Journal, 13(1), 65-88).

amaliyoti, hududlarning salohiyati va ularni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan⁵.

Mavjud tadqiqotlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish bo'yicha ayrim nazariy va metodologik natijalar olingan bo'lsada, ularda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini barqaror rivojlantirish yoritilmagan. Bu esa, o'z o'rnida, dolzarb masala hisoblanib, ushbu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish davr talabi bo'lib qolmoqda. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsadi va vazifalarini belgilashga asos bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan bo'lib, u «Bozor raqobati sharoitida real sektor tarmoqlari va korxonalar rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish» mavzusidagi ilmiy loyihaga integratsiyalangan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini barqaror rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash va ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turizm sohasini barqaror rivojlantirish kontseptsiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish, uning mohiyatini ochib berish va xalqaro ilmiy-amaliy tajribalar asosida zamonaviy yondashuvlarni aniqlash;

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini barqaror rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, ularning amaliyotga tatbiq etilish darajasini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

⁵ M.Amonboyev, S.Xalilov. Barqaror turizm rivojlanishi. O'quv qo'llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 96 b., AA.Mahkamovich, Barqaror turizmni rivojlanishi Iqtisodiyot, 2024., Eshtayev, Alisher Abdug'aniyevich. "O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanishiga global trendlarning ta'siri." (2023): 72-78.,

Turizm sohasini barqaror rivojlantirish ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ularning asosiy jihatlarini tahlil qilish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini ishlab chiqish;

O'zbekistonda turizm sohasini barqarorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni tahlil qilish va mamlakat sharoitida qo'llash imkoniyatlarini baholash;

O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta'minlovchi yondashuvlarni ishlab chiqish;

Namangan viloyati misolida turizm sohasini barqaror rivojlantirish imkoniyatlarini baholash, hududiy barqarorlik ko'rsatkichlaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;

tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirishga ko'maklashuvchi aniq va amaliy ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqish;

Namangan viloyatining turizm sohasini barqaror rivojlantirish jarayonlarini 2030-yilgacha prognoz qilish, turizm xizmatlari eksportini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi, xususan, Namangan viloyatida turizm sohasi subyektlari faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib turizmni barqaror rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash va amalga oshirishda vujudga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tizimli va iqtisodiy-statistik tahlil, mantiqiy va qiyosiy tahlil, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, sabab va oqibatni o'rganish, ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish, statistik guruhlash hamda modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

uslubiy yondashuvga ko'ra «Barqaror turist» tushunchasining iqtisodiy mazmuni turizm faoliyatiga ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik tamoyillari asosida ekoturizm, mas'uliyatli turizm va barqaror rivojlanish g'oyalari bilan chambarchas bog'liq holda yondashuvga ko'ra takomillashtirilgan;

O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish bo'yicha regressiya tahlili natijalari orqali «davlat-boshqaruv turizmi» (0,674), «ilmiy turizm» (0,793), «geologiya turizmi» (0,578), «sanoat turizmi» (0,399) va «harbiy turizm» (0,590) yo'nalishlarining ta'sir darajasiga ko'ra istiqbolli turizm turlari sifatida barqaror rivojlantirish taklifi asoslangan;

Namangan viloyatida turizmni barqaror rivojlantirishni ta'minlaydigan va unga yondosh tarmoqlar bilan birgalikda rivojlanish salohiyatiga ega, odatda yolg'iz, juftlikda yoki kichik guruhlar bilan sayohat qilishni afzal ko'ruvchi «mustaqil turizm» toifasi uchun mos keluvchi xizmatlar majmui ishlab chiqilgan;

Namangan viloyatiga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar soniga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasida mintaqaning iqtisodiy holatini yaxshilash va yangi ish o'rinlari yaratishga hissa qo'shuvchi turizm sohasini barqaror rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Namangan viloyati uchun barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan va unga yondosh tarmoqlar bilan integratsiyalashgan turizm xizmatlarining innovatsion tizimi ishlab chiqilgan;

turizm xizmatlarini eksport qilish hajmini oshirish uchun O'zbekistonda istiqbolli turizm turlarini xorijiy bozorlarga chiqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

hukumat va mahalliy boshqaruv organlari uchun turizm sohasida strategik qarorlar qabul qilishda asos bo'lib xizmat qilgan;

xorijiy turistlarni mamlakatga jalb etishni kengaytirish, hududlarda turizm investitsiyalarini o'zlashtirish, mahalliy aholining turizm sohasidagi faolligini qo'llab-quvvatlashdek turizm barqarorligini ta'minlashga doir takliflardan turizm bo'yicha yagona istiqbolli yo'nalishlarni belgilab olishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan nazariy va uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborotlar bazasining

rasmiy manbalaridan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Global Sustainable Tourism Council (GSTC), Jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining qonunchilik va me'yoriy-uslubiy hujjatlari, shuningdek statistika to'plamlari va tahliliy materiallari manbalaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalaridan tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik asoslar iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida zamonaviy turizmning barqaror rivojlanishini tashkil etish va boshqarishga, turistik xizmatlar sifatini oshirish, respublikada turizm sohasining samarali faoliyat yuritishi, jahon bozorida milliy turizm mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish va rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratilganligi, shuningdek respublikada turizm sohasini barqaror rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularga asoslanib ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan respublikada turizm infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha dasturiy hujjatlar, kompleks chora-tadbirlar, turizm faoliyati bilan shug'ullanadigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirishga doir tadbirlarni ishlab chiqish, shuningdek, iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida «Turizm: nazariya va amaliyot», «Turizm geografiyasi», «Turizmda sifatni boshqarish», «Turizm siyosati», «Barqaror turizm boshqaruvi», «Turizm marketingi», «Turizm rivojlanishini prognozlash» fanlaridan o'quv dasturlar, qo'llanmalar, darsliklar tayyorlashda uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

usuliy yondashuvga ko'ra «Barqaror turist» tushunchasining iqtisodiy mazmunini turizm faoliyatiga ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik tamoyillari asosida ekoturizm, mas'uliyatli turizm va barqaror rivojlanish g'oyalari bilan chambarchas bog'liq holda yondashuvga ko'ra takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun tavsiya etilgan "Quality Management in Tourism" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 14-iyuldagi 228-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalar ta'lim jarayonida va kelajakdagi ish faoliyatida turizmga sifatni boshqarish va barqarorlik tamoyillarini o'rganish bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarni hosil qilish imkoniyati yaratilgan;

O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish bo'yicha regressiya tahlili natijalari orqali "davlat-boshqaruv turizmi" (0,674), "ilmiy turizm" (0,793), "geologiya turizmi" (0,578), "sanoat turizmi" (0,399) va "harbiy turizm" (0,590) yo'nalishlarining ta'sir darajasiga ko'ra istiqbolli turizm turlari sifatida barqaror rivojlantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 582-son "Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistlik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 27-fevral 03-10-17-1804-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizmning yangi turlarini joriy qilish orqali mahalliy va xorijiy turistlar uchun qo'shimcha imkoniyat va qulayliklar yaratish, turizm salohiyati yuqori hududlarda turistlik xizmatlarni ko'paytirish imkonini bergan;

Namangan viloyatida turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan va unga yondosh tarmoqlar bilan birgalikda rivojlanish salohiyatiga ega, odatda yolg'iz, juftlikda yoki kichik guruhlar bilan sayohat qilishni afzal ko'ruvchi «mustaqil turizm» toifasi uchun mos keluvchi xizmatlar majmuidan foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-apreldagi

211-son “2022-2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorida “Namangan viloyatida turizmni rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari” ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 27-fevral 03-10-17-1804-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ehtiyojlarini muvozanatlash bilan birga tabiiy hamda ekologik jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik turistik ob‘ektlariga sayohatlarni jalb qilish va turistlar oqimini ko‘paytirish imkonini bergan;

Namangan viloyatiga tashrif buyuruvchi turistlar soniga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-apreldagi 211-son “2022-2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” gi qarorida “Namangan viloyatida turizmni rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari” ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 27-fevral 03-10-17-1804-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022-2026-yillarda Namangan viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha maqsadli turizm ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish va o‘zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari aks etgan 10 ta ish aprobatsiyadan o‘tkazilgan bo‘lib, jumladan 6 tasi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 4 tasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ilmiy ma’ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining natijalari bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda OAK ro'yxatidagi jurnallarda 11 ta maqola nashr qilingan. Ularning 4 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar hisoblanadi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning umumiy hajmi 157 betni tashkil etadi.